



IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY



ROAD
74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 75 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Omborxonada wms tizimidan foydalanishni afzalliklari.....	16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по ерс-контрактам.....	21
Махмудов Сардор Козим угли	
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili	27
Abduvohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati.....	34
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	36
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде	39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев	
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish	49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi	
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari	52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida)	56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich	
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili.....	58
Lapasova Kamola Farhod qizi	
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati"	63
Abdiraimov Abbas Xolmurod O'g'li	
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar	67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili	72
Raximov Ilyos Muydinovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA STANDARTLASHTIRISH SIYOSATIDA XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK TAHLILI

Raximov Ilyos Muydinovich

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqotda ISO 9001 kabi sifat menejmenti tizimlarining milliy tizimga joriy qilinishi, xalqaro standartlar bilan moslik darajasi, hamda GREB loyihasi doirasidagi o'quv modernizatsiyasi yoritilgan. Tahlillar Juran, Deming va QFD nazariyalariga asoslanib, SWOT metodikasi orqali tahliliy baholash amalga oshirilgan. Natijada xalqaro integratsiya jarayonining ijobiy dinamikasi aniqlanib, amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: standartlashtirish, xalqaro tashkilotlar, ISO 9001, sifat menejmenti, GREB, SWOT, metrologiya, QFD, O'zbekiston, integratsiya.

Abstract: This article analyzes the current state and development trends of Uzbekistan's standardization policy within the framework of cooperation with international organizations. The study explores the implementation of quality management systems such as ISO 9001, the alignment of national standards with international ones, and the modernization of education through the GREB project. The analysis is based on the theories of Juran, Deming, and QFD, using the SWOT methodology. As a result, the study reveals a positive dynamic of international integration and proposes practical recommendations.

Key words: standardization, international organizations, ISO 9001, quality management, GREB, SWOT, metrology, QFD, Uzbekistan, integration.

Аннотация: В данной статье проведён анализ состояния и тенденций развития политики стандартизации в Республике Узбекистан в контексте сотрудничества с международными организациями. В исследовании рассмотрены внедрение систем менеджмента качества, таких как ISO 9001, степень соответствия национальных стандартов международным, а также модернизация образовательных программ в рамках проекта GREB. Анализ основан на теориях Джурана, Деминга и QFD с применением методики SWOT. В результате выявлена положительная динамика интеграции и предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: стандартизация, международные организации, ISO 9001, менеджмент качества, GREB, SWOT, метрология, QFD, Узбекистан, интеграция.

KIRISH

O'zbekistonning globallashuv sharoitida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishlaridan biri — bu standartlashtirish tizimini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish hamda ilg'or amaliyotlarni joriy etishdan iborat. Standartlashtirish nafaqat ichki bozorda sifatni ta'minlaydi, balki mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqishini ham yengillashtiradi. Shu sababli, xalqaro standartlar tashkilotlari bilan samarali hamkorlik O'zbekiston uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston ISO (International Organization for Standardization), IEC (International Electrotechnical Commission), *Codex Alimentarius* kabi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda, o'z milliy standartlarini ularning talablariga uyg'unlashtirishga harakat qilmoqda. Bu esa mamlakatda eksport salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb etish va sanoat tarmoqlarini zamonaviylashtirish imkonini beradi.

Xususan:

- Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi hamda Butunjahon savdo tashkiloti (WTO)ga a'zo bo'lish jarayonida texnik reglamentlar va standartlarning o'zaro mosligi muhim masalaga aylanmoqda;
- O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy standartlar tizimini xalqaro talablarga moslashtirishni talab qilmoqda;
- Oziq-ovqat xavfsizligi, ekologiya, energetika va raqamli texnologiyalar singari strategik sohalarda xalqaro hamkorlik, bilim va texnik tajriba almashinuvi orqali taraqqiyotga erishish mumkin.



Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzu O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyaga kirib borish strategiyasi, milliy mahsulotlar sifatini oshirish, iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ilmiy-texnik taraqqiyot uchun zarur zamin yaratish yo'lidagi harakatlari bilan chambarchas bog'liq. Mavzuning dolzarbligi aynan shu real ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda xalqaro standartlashtirish tizimiga faol integratsiyalashmoqda. Bu jarayon xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan texnik siyosat, davlat boshqaruvidagi islohotlar hamda sifat menejmenti tizimlarini tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda. 2024 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda milliy standartlarning xalqaro standartlarga moslashish darajasi 30,6 % ga yetdi. Bu 2022 yildagi 24,7 % ko'rsatkichga nisbatan sezilarli o'sish bo'lib, xalqaro hamkorlikning natijadorligini ko'rsatadi. Jumladan, 1 739 ta xalqaro standart milliy standartlar bazasiga tatbiq etilganligi bu boradagi real taraqqiyotdan dalolat beradi [8].

Milliy siyosatda ham xalqaro standartlarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratilgan. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida davlat idoralarida ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish belgilangan. 2023 yilda 40 dan ortiq idorada bu tizim joriy etilgan bo'lib, 2026 yilgacha ularning sonini 100 dan oshirish rejalashtirilgan [9]. Ushbu siyosiy yondashuv PQ–91-sonli qarorda ham o'z aksini topgan bo'lib, standartlashtirish, muvofiqlik baholash, akkreditatsiya va metrologiyani yagona tizimda boshqarish tamoyiliga asoslangan holda tartibga solinmoqda [10].

Xalqaro hamkorlik masalasiga kelsak, hozirgi kunda O'zbekiston ISO, IEC, ITC, KOICA, PTB (Germaniya) va SMIIC kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan barqaror aloqalarni yo'lga qo'ygan. Bu aloqalar, ayniqsa, texnik salohiyatni oshirish, sifat infratuzilmasini modernizatsiyalash va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha qo'shma loyihalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda [8]. Shuningdek, GREB (Green Building) xalqaro loyihasi doirasida "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" fanlarini xalqaro talablarga moslashtirish orqali oliy ta'lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda. Bu esa yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda [6].

Nazariy yondashuvlar tahlili ham standartlashtirish siyosatini chuqurroq anglashga yordam berdi. Juran modeli orqali davlat tizimida sifatni rejalashtirish va uni muntazam yaxshilash mexanizmlari aniqlab berildi [1]. Ishikawaning sabab–oqibat tahliliga asoslangan yondashuvi esa muammolarning ildiz sabablarini aniqlash imkonini berdi [2]. Demingning 14 tamoyili va "Chuqur bilimlar tizimi" esa davlat boshqaruvida liderlik, tizimli fikrlash va uzluksiz takomillashtirishga asoslangan siyosat yuritishga xizmat qilmoqda [11]. Shu bilan birga, QFD modeli orqali aholining ehtiyojlarini texnik talablarga aylantirish yo'li bilan sifatli davlat xizmatlari va mahsulotlarini yaratish imkoniyati kengaymoqda [4].

Amaliy jihatdan qaralganda, O'zbekiston korxonalari o'z faoliyatida xalqaro standartlarga muvofiq ishlashga intilmoqda. ISO 9001 tizimining tatbiqi korxonalarda boshqaruv madaniyatining oshishiga, mahsulot va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga olib kelmoqda. Shuningdek, sifat menejmenti tizimi joriy etilgan korxonalarda eksport hajmining o'sishi kuzatilmoqda. 2023 yilda xalqaro sertifikatga ega korxonalarning eksporti o'rtacha 18 % ga oshganligi bu jarayonning ijobiy samarasini ko'rsatadi [8].

Shu bilan birga, tahlillar natijasida tizimdagi mavjud muammolar ham aniqlangan bo'lib, ular SWOT tahlili shaklida quyidagi tarzda ifodalanadi:

1-jadval. SWOT tahlili: O'zbekiston standartlashtirish tizimi¹.

Kuchli jihatlar (Strengths)	Zaif jihatlar (Weaknesses)
Xalqaro standartlar joriy qilinmoqda (ISO, IEC)	Hali ko'plab milliy standartlar xalqaro talabga mos emas
Sifat menejmenti tizimlari (ISO 9001) faol joriy etilmoqda	Malakali kadrlar tanqisligi
Xalqaro tashkilotlar bilan barqaror hamkorlik	Texnik infratuzilma hamma sohalarda bir xil darajada emas
Qonunchilik asoslari takomillashtirish	Ba'zi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosida sekinlik mavjud
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Eksport salohiyatini oshirish	Xalqaro bozorda texnik to'siqlarga duch kelish ehtimoli
Yangi texnologiyalarni joriy etish (AR, raqamli tizimlar)	Sifat tizimlarining noto'g'ri joriy etilishi
Yevropa va Islom mamlakatlari bilan qo'shma loyihalar	Bozor talablari o'zgarishiga tez moslasha olmaslik

1 Muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda standartlashtirish siyosati so'nggi yillarda izchil rivojlanib, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan faoliyat milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ISO 9001 kabi ilg'or sifat menejmenti tizimlarining joriy qilinishi, GREB loyihasi doirasida ta'lim tizimidagi yangilanishlar va xalqaro standartlarning milliy tizimga moslashtirilishi orqali samaradorlik yildan yilga ortmoqda.

Mazkur jarayonlar natijasida davlat boshqaruvi va ishlab chiqarish tizimlarida sifat madaniyati shakllanib borayotgani, eksport salohiyatining kengaygani hamda xalqaro texnik me'yorlarga yaqinlashuv barqaror tus olgani kuzatilmoqda.

Shu asosda, standartlashtirish tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim deb hisoblanadi:

- Milliy standartlarni xalqaro talablarga to'liq uyg'unlashtirishni jadallashtirish;
- Sifat menejmenti sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish;
- QFD va boshqa nazariy yondashuvlarni davlat xizmatlari sifatini boshqarish amaliyotiga tatbiq etish;
- Xalqaro hamkorlikni mintaqaviy darajada ham kengaytirish.

Ushbu yondashuvlar O'zbekistonning global standartlashtirish tizimidagi mavqeini yanada mustahkamlab, barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Juran, J. M., & Godfrey, A. B. (1999). Juran's Quality Handbook (5th ed.). McGraw-Hill.
2. Ishikawa, K. (1988). Yaponskie metody upravleniya kachestvom. Moskva: Ekonomika.
3. Knowles, G. (2011). Quality Management. Bookboon. ISBN: 978-87-7681-875-3.
4. Han, D. (2016). The Development of a QFD Model for the Implementation of a Mobile AR Tourism Application in the Context of Urban Heritage Tourism [Doctoral dissertation, Manchester Metropolitan University].
5. International Organization for Standardization. (2015). ISO 9001:2015 – Quality management systems – Requirements. Geneva: ISO.
6. Siddikov, I. Kh., et al. (2018). Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Tashkent University of Information Technologies.
7. Shaozimova, U. X. (2019). Metrologiya va standartlashtirish. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi. (2024). Analitik axborot – 2024 yil uchun yillik tahliliy hisobot. Toshkent. https://new.standart.uz/upload/file/analitika/analit_uzst_12_2024lat.pdf
9. O'zTTSA tizimida 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi. https://new.standart.uz/upload/file/prochie/davlat_dasturi_yuzasidan_malumot_uzl.pdf
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevral PQ-91-son "Standartlashtirish tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6821843>
11. Deming, W. E. (1986). Out of the Crisis. MIT Center for Advanced Educational Services.
12. Crosby, P. B. (1979). Quality is Free: The Art of Making Quality Certain. New York: McGraw-Hill.
13. Feigenbaum, A. V. (1991). Total Quality Control. McGraw-Hill.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
